



## XALQ MAQOLLARIDA ARXAIZMLAR VA MADANIY KONNOTATSIYA

Muxammedova Sumbul Ikrombek qizi  
[sumbulmuxammedova0304@mail.ru](mailto:sumbulmuxammedova0304@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarida keltirilgan arxaik birliklarning ahamiyati va ular orqali konnotatsiyaning yuzaga chiqishi misollar orqali tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** maqol, konnotatsiya, arxaik birliklar, misqol, karvon.

**Annotation.** In this article, the importance of archaic units in Uzbek folk proverbs, the emergence of connotation through them, is analyzed through examples.

**Key words:** proverb, connotation, archaic units, misqal, caravan.

O‘zbek tilining noyob leksik-grammatik vositalari, xususan, xalq jonli tiliga mansub eng sara birliklarini o‘zida saqlab kelayotgan manba bu – xalq og‘zaki ijodi hisoblanadi. Ma’lumki, folklor manbalari turli tuman janlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Jumladan doston, ertak, asotir, rivoyatlar, maqol va matallar, cho‘pchak va tez aytishlar, laparlar va xalq qo‘shiqlari, askiyalar xalq donoligining noyob unsurlarini so‘z qo‘llashga mohir kishilarning xizmatlari bilan asrlar osha avloddan-avlodga yetkazib kelayotgan noyob manba hisoblanadi.

Jamiyatda bo‘lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma’rifiy sohadagi islohotlar tilning lug‘at boyligida yangi-yangi so‘z va atamalarning yuzaga kelishini, ayni paytda so‘z-leksemalarning eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi<sup>1</sup>. Mazkur jarayon natijasida tilda neologizm, arxaizm va istorizmlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbek tilidagi mavjud so‘zlar tarixiylik jihatdan uch toifaga: *zamonaviy qatlam*, *eski qatlam* va *yangi qatlam* so‘zlariga ajratiladi<sup>2</sup>. Zamonaviy qatlam so‘zlari davr nuqtayi nazaridan faol qo‘llanilayotgan bo‘lsa, eski va yangi qatlam faol bo‘lmagan so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Yangi so‘zlar hali qo‘llanila boshlaganiga ko‘p vaqt bo‘lmagan, yangi so‘zlardan iborat bo‘ladi.

O‘zbek tilining boyish manbalaridan hisoblangan ichki manbalar, alohida qimmat kasb etadi. Ichki manbalarning asosini esa, xalq og‘zaki ijodiga mansub manbalar tashkil etadi. Maqollar ana shu jihatdan o‘ta muhim lingvistik faktlarni o‘zida saqlab keladi. O‘zbek xalq maqollarida konnotatsiya hodisasi tadqiq qilinar ekan mazkur hodisa ko‘p hollarda eskilik bo‘yog‘ini olgan, arxaiklashib ulgurgan leksik vositalar tizimiga aloqador bo‘lib chiqishi tekshirishlardan ayon bo‘ladi.

<sup>1</sup>Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B.204.

<sup>2</sup>Hozirgi o‘zbek adabiy tili. X.Muhiddinova, D.Xudayberganova v.b. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – B.57.



Tarixiylik jihatdan zamonaviy faol qatlam va yangi so‘zlar qatlami hali yana ishlatilib, ularning xususiyatlari o‘rganilishi uchun imkon mavjud bo‘lgan qatlamlar hisoblanadi. Ammo eski qatlamga oid lisoniy birliklar tezlik bilan o‘rganilmasa, xususiyatlari ochilib, ifoda imkoniyatlari bayon qilinmasa, ular unutilib ketishi, o‘zbek tilining leksik boyliklari kamayishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, tilning qashshoqlashishiga olib keladi.

Biz nazarda tutayotgan eski so‘zlar manbalarda ikki turkumga ajratiladi. Bular: tarixiy so‘zlar va arxaizmlar.

Tillar taraqqiyotida muayyan bir tushuncha anglatuvchi so‘z eskilik bo‘yog‘ini olsa-yu, u anglatgan tushuncha eskirmasa, arxaiklashish hodisasi yuz beradi. “Arxaizm” yunon tilidan olingan termin bo‘lib, “*archaios*” – qadimgi ma’nosini ifodalaydi, ma’lum davr uchun eskirgan, iste’moldan chiqa boshlagan so‘zlarni anglatadi<sup>3</sup>.

Xalq maqollarida arxaik elementlarning ko‘plab uchrashiga sabab, mazkur janrga mansub matnlarning katta foizi davr nuqtayi nazaridan ancha oldin yaratilganligi va avloddan avlodga o‘zgarishsiz yoki kam o‘zgarish bilan yetib kelayotganligidadir. Ana shu faktorning o‘zi ham maqolar tarkibida qo‘llanilgan ayrim so‘zlarning nafaqat eskirgan bo‘lishi, balki o‘sha so‘z va birikmalarning zamonlar osha turli boshqa ma’nolar ifodalash xususiyatiga ham ega bo‘lib borganligini bildiradi va asliyatidan ancha uzoqlashgan, ba’zan esa asliyatiga yaqinroq semantik qirralarga ega bo‘lib boruvchi leksik elementlar mavjudligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq maqollarida uchraydigan arxaiklashgan birliklarni bir qancha jihatlariga ko‘ra tekshirish mumkin. Jumladan: *poshsho//podsho*, *yaroq*, *mo‘ndi*, *barimta*, *tikon*, *buromad*, *karvon*, *misqol*, *qadoq*, *bo‘yra*, *libos*, *kift*, *changal* kabi leksik birliklar, shuningdek, *qilur*, *qolur*, *ko‘rsatur*, *so‘yla*, *inonib* singari tarkibida arxaik elementlari mavjud birliklar. O‘zbek xalq maqollaridan olingan yuqoridagi arxaik leksemalarning tarixiy-etimologik jihatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning muayyan qismi tilimizga o‘zga tillardan o‘zlashgan so‘zlar bo‘lib chiqadi. Ana shunday elementlar ishitirok etgan maqollarga yuzlanamiz:

*Bo‘yra*<sup>4</sup> – *Yurgan* – *daryo*, *o‘tirgan* – *bo‘yra*. Mazkur maqolning asliy mohiyatiga ko‘ra qo‘llash va tushunish mumkin emas. Albatta, bu yerda ko‘chma ma’nolar ifodalovchi birliklar sifatida “*daryo*” hamda “*bo‘yra*” so‘zлari yetakchi so‘zlar hisoblanadi. Asl denotatga nisbatan ushbu so‘zlarni tushunish mantiqiy nomuvofiqlikka olib keladi. Bu yerda, albatta, insonlar nazarda tutilganligi mazkur birliklarning konnotatsiya hodisasini yuzaga keltirayotganligini ko‘rsatadi. Ya’ni inson agar dunyo kezib, safarlarda yurib, odamlarnig yashash tarzi kabilar bilan tanish bo‘lsa, u xuddi

<sup>3</sup>Mahkamov N., Ermatov I. Ko‘rsatilgan manba, 17-bet.

<sup>4</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. B harfi. Madvaliyev tahiri ostida. [www.ziyouz.com/kutubxonasi.](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi/) – B.405.



daryoning oqib yurtlardan o‘tib kelishiga qiyoslanadi. Agarki, bir joyda muqim bo‘lib yashasa, tevarak atroflarga sahoyat bilan chiqmasa, dunyodan bexabar, tushunchasi kichkina odam bo‘lib qoladi va bunday odamlarni bir joyda turib qolib zax va nam yopishib, chirib ketadigan bo‘yraga o‘xshatish orqali kishilarga bilim berilgan.

Ushbu maqoldagi *bo‘yra* so‘zi ham hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan arxaiklashgan leksema hisoblanadi. Shu bilan birga maqola tarkibidagi so‘zlarga diqqat qaratilsa, shu so‘zdan boshqa arxaiklashgan birlikni kuzatmaymiz. Xuddi yuqorida keltirilgan holatni ushbu maqolda yana kuzatimoqdamizki, bunday holatni tilshunosligimizda analogiya hodisasi sifatida baholashimiz va mavjud qonuniyat sifatida qayd qilishimiz mumkin.

Demak, maqollar tarkibidagi arxaiklashish hodisasi, ular tarkibidagi barcha lisoniy birliklarga xos bo‘lmasligi mumkin. Muayyan maqol tarkibidagi eskirib qolgan bir so‘zning ishlatalishi, asosan, she’riy shakllarda bayon qilingan maqollarda ko‘proq kuzatiladi. Bunday so‘zlearning qo‘llanishiga, ko‘pincha, maqoldagi asosiy ma’noni ifodalab kelayotgan so‘zga qofiyadosh bo‘lib qolishi sabab bo‘ladi.

*Karvon<sup>5</sup> – It xurar – karvon o‘tar.* Mazkur maqolda arxaiklashgan birlik yuqoridagi misollardan farqli o‘larоq, qofiyalashgan leksemalar o‘rtasida ro‘yobga chiqmagan. Maqoldan quyidagi mazmun anglashiladi. Agar sen biror ishga qo‘l ursang uning kamchilagini topishga harakat qiluvchilar, ko‘rolmaydigan odamlar ham ko‘p bo‘ladi. Sen esa ularga e’tibor qilmasdan ishingni davom ettiraver, maqsadingdan qaytma, qat’iyat bilan davom etaver degan konnottiv mazmun tushuniladi. Bu maqoldan bir necha variantlardagi turli xildagi mazmunni ham anglash mumkin bo‘ladi. Yana bir mazmun sifatida, sen erishgan muvaffqiyatni ko‘rolmasadan uning aybini, kamchilagini topishga urinadiganlardan ehtiyyot bo‘lish, sabr-bardosh bilan gap-so‘zлarni yengib o‘tishga undash kabi mazmunni ham anglash mumkin. Bu kabi maqollar tarkibidagi konnotativ funksiya bajaruvchi, shu bilan birga, arxaiklashgan leksemalarning til qatlamlariga e’tibor qilinsa, ularning aksariyati o‘zlashgan qatlamga xos birliklar ekanligi ma’lum bo‘ladi. Jumladan, karvon, buromad, kift va boshqa ko‘plagan arxaik birliklar arab-fors leksik qatlamiga mansub hisoblanadi.

O‘zbek xalq maqollarida uchraydigan arxaik leksemalarning katta foizi arab yoki fors tillariga taalluqli bo‘lishiga sabab, mazkur tillarga oid birliklar tariximizning oldindi davrlariga xos lisoniy koloritni yuzaga keltirish funksiyasiga xoslanishidir. Maqolar aksariyat hollarda axloqiy, tarbiyaviy xarakterga asoslangani uchun, undagi so‘zlearning ta’sirli bo‘lishi ko‘proq o‘tmishga, ota-bobolar o‘gitlariga yaqinlashtirish uchun tarixiy va eskirgan so‘zlar maqolar matnidan chiqarib tashlanmaydi. Zamonlar

<sup>5</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. K harfi. Madvaliyev tahiri ostida. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi). – B.320.



osha ham qadimiyligi bo‘rtib turishi uchun, bu so‘zlar avvalgi zamonlardan buyon aytilib, amal qilinib kelinayotganligini ifodalashga xizmat qiladi. Biroq, xalq maqollarida eng qadimiy qatlam baribir turkiy qatlam so‘zları bo‘lib chiqadi. Negaki, har qanday tilning bazaviy qatlamini, o‘z qatlam tashkil qiladi<sup>6</sup>. Quyidagi maqollar tarkibida ishtirok qilgan arxaik birliklar ana shunday o‘z qatlamga mansub so‘zlardir:

*Barimtadan qo‘rqqan mol yig‘mas,*

*Chigirkadan qo‘rqqan ekin ekmas;*

*Botirga tayoq ham yarog‘ yoki Botirning mushti ham yarog‘;*

*Gul tikonsiz bo‘lmas* kabi maqollardagi *barimta*<sup>7</sup>, *yarog*<sup>8</sup>, *tikon*<sup>9</sup> arxaik leksemalari o‘z qatlamga xos birliklardir.

Maqolar tarkibida qo‘llanilgan arxaik elementlar so‘z turkumlari jihatdan tekshirilganida ular orasida ot so‘z turkumiga xos leksemalar katta foizni tashkil qilishi ma’lum bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan misollardan *poshsho*, *yaroq*, *mo‘ndi*, *barimta*, *tikon*, *buromad*, *karvon*, *bo‘yra*, *libos* kabilar ot turkumiga mansub.

Shu bilan bir qatorda boshqa turkumlarga mansub leksemalar ham mavjud. Masalan, *so‘yla* (so‘zla), *na qilur* (nima qiladi), *inonib* (ishonib), *ko‘rsaturlar* kabi fe’l turkumiga mansub birliklar ham mavjud. Quyida ana shu birliklar ishtirok etgan maqollardan keltiramiz:

Avval o‘yla, keyin *so‘yla*.

Bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq *na qilur*.

Tuya bo‘yniga *inonib*<sup>10</sup>, yildan quruq qolibdi.

Aybing bo‘lsa qilday, *ko‘rsaturlar* filday va boshqalar<sup>11</sup>.

O‘zbek xalq maqollari matnlarida kam miqdorda bo‘lsa ham miqdor ma’nosiga ishora qiluvchi numerativ so‘zlarning arxaik shakllari uchraydi. Quyidagi maqol mantiga ana shunday birliklar kuzatiladi: *Obro‘ misqollab* yig‘iladi, *qadoqlab* to‘kiladi.

Albatta, mazkur maqolda qo‘llanilgan misqol yoki qadoq leksemalari o‘zining denotatlaridan anchayin uzoqlashgan ma’no va mazmunni ifodalash funksiyalarini o‘ziga yuklab olgan, to‘g‘rirog‘i, mazkur maqol ijodkorlari yuklashgan.

*Misqol* leksemasi numerativ birlik bo‘lib, manbalarda arab tiliga oid deb qaralib, 4,35 – 4,86 gramm og‘irlikdagi o‘lchov birligini anglatadi<sup>12</sup>. *Qadoq* leksemasi esa omonimlik hamda polisemantik xarakteridagi so‘z bo‘lib, qiymat jihatidan 1 funtga teng

<sup>6</sup>Oloyorov Q. Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari. –Toshkent: adabiyot uchqunlari, 2020. – B.60.

<sup>7</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. B harfi. Madvaliyev tahiri ostida. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi). – B.168.

<sup>8</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ya harfi. Madvaliyev tahiri ostida. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi). – B.120.

<sup>9</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T harfi. Madvaliyev tahiri ostida. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi). – B.87.

<sup>10</sup>Yo‘ldoshev I., Tunç O‘zturk., Yuksal O‘zturk. O‘zbek va turk maqollari iboralari. – Toshkent, 1998. – B.31.

<sup>11</sup>Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 1990. – B.14.

<sup>12</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. M harfi. Madvaliyev tahiri ostida. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi). – B.602.



va og‘irlik jihatidan 409 – 512 gramm og‘irlik o‘lchovi ma’nosini ifodalaydi. *Qadoq* arxaik numertaivining yuqoridagi ikkita ma’nosи o‘zaro aloqadorligi mavjudligi sabab polisemantik deb hisoblanishi mumkin. Ammo ushbu so‘zning hozirgi o‘zbek tilida *upakovka*, *flakon*, *quiti* ma’nolarida, shuningdek, *qo‘li qadoq* (inson terisining ishqalanadigan joyining qalilashuvi, yag‘ir) ma’nolari bilan omonimlik yuzaga keltirishini ko‘rish mumkin<sup>13</sup>.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zbek xalq maqollari nofaol tarzda bo‘lsa ham hozirda qo‘llanilib turgan arxaik birliklarni o‘zida saqlab kelayotgan muhim manbalardan hisoblanadi. Maqollar matnlarida uchraydigan arxaik elementlarni to‘plash, turli lisoniy-konnotativ jihatlarini aniqlash zamonaviy tilshunosligimiz uchun muhim ma’lumotlarni taqdim qiladi.

## Foydalilanigan adabiyotlar

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. X.Muhiddinova, D.Xudayberanova v.b. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – B.57.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B.204.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. B harfi. Madvaliyev tahiri ostida. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi). – B.108, 405.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. K harfi. Madvaliyev tahiri ostida. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi). – B.320.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. M harfi. Madvaliyev tahiri ostida. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi). – B.602.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Q harfi. Madvaliyev tahiri ostida. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi). – B.206.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T harfi. Madvaliyev tahiri ostida. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi). – B.87.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ya harfi. Madvaliyev tahiri ostida. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi). – B.120.
9. Olloyorov Q. Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari. –Toshkent: adabiyot uchqunlari, 2020. – B.60.
- 10.Yo‘ldoshev I., Tuncy O‘zturk., Yuksal O‘zturk. O‘zbek va turk maqollari iboralari. – Toshkent, 1998. – B.31.
- 11.Шомақсұдов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 1990. – B.14.

<sup>13</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Q harfi. Madvaliyev tahiri ostida. [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi). – B.206.